

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILLIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E‘TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHATLARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA‘LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA TA‘LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN‘ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллагалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АҲАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Tangirova Mavjuda

SamDU Sotsiologiya va ijtimoiy ish

kafedrasi o'qituvchisi

e-mail: tangirova16@mail.com

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17048626>

ANNOTATSIYA

Maqolada ayollarning tashqi va ichki mehnat migratsiyasi bilan bog'liq asosiy masalalar ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, migrant ayollarning mehnat faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi huquqiy jihatlar hamda ularning migratsion jarayonlarda ishtirokini belgilovchi omillarga e'tibor qaratiladi. Chet ellik ish beruvchilar va kompaniyalar bilan hamkorlik, xorijiy davlatlar bilan amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq tuziladigan shartnomalar o'ziga xosligi tahlil qilinadi. Ayol migrantlarni ishga joylashtirish muammolari, chet elda qonuniy va xavfsiz mehnat faoliyatini ta'minlash uchun huquqiy va tashkiliy asoslarni takomillashtirish yo'llari yoritiladi.

Tayanch so'zlar: ayollar, mehnat, migratsiya, huquq, siyosat, bandlik, migrant, chet elliklar, zamonaviy turlar, oqimlar, tajriba, ijobiy va salbiy oqibatlar.

Тангирова Мавжуда,

Преподаватель кафедры Социологии и социальной работы

Самаркандского государственного университета

e-mail: tangirova16@mail.com

ОСНОВНЫЕ ПОТОКИ И СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ ЖЕНЩИН

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются ключевые вопросы, связанные с внешней и внутренней трудовой миграцией женщин. Особое внимание уделено правовым аспектам, влияющим на трудовую деятельность мигранток, а также факторам, определяющим их участие в миграционных процессах. Анализируется сотрудничество с иностранными работодателями и компаниями, специфика заключения трудовых договоров с зарубежными странами в соответствии с действующим законодательством. Раскрываются проблемы трудоустройства женщин-мигрантов, пути совершенствования правовых и организационных основ, обеспечивающих законное и безопасное осуществление трудовой деятельности за пределами страны.

Ключевые слова: женщины, труд, миграция, право, политика, занятость, мигрант, иностранцы, современные виды, потоки, опыт, позитивные и негативные последствия.

Tangirova Mavjuda,Lecturer at the Department of Sociology and Social Work,
Samarkand State University
e-mail: tangirova16@mail.com**MAIN STREAMS AND MODERN TRENDS IN WOMEN'S LABOR MIGRATION****ABSTRACT**

The article examines the main issues related to women's external and internal labor migration. Special attention is given to the legal aspects affecting the employment of migrant women, as well as to the factors determining their participation in migration processes. Cooperation with foreign employers and companies, along with the specifics of concluding labor contracts with foreign countries in accordance with current labor legislation, is analyzed. The article also highlights the problems of employing women migrants and outlines ways to improve the legal and organizational frameworks that ensure lawful and safe labor activity abroad.

Key words: women, labor, migration, law, politics, employment, migrant, foreigners, modern types, flows, experience, positive and negative consequences.

KIRISH

Xalqaro Mehnat migratsiyasining zamonaviy xususiyatlaridan biri bu uning feminizatsiyalashuvidir. Og'ir jismoniy mehnat talab qilmaydigan sohalarining, xususan, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va bandlik tarkibining transformatsiyalashuvi kabi jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar xususan, xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi global mehnat migratsiyasining muhim bir qismiga aylangan ayollar mehnat migratsiyasining shakllanishiga va rivojlanishiga turtki berdi. Bandlik tarkibidagi bunday transformatsiyalashuv bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishning kamayishi va kishilarning o'rtacha umr ko'rish davomiyligini ortishi qariyalar sonining ko'payishiga va ularni parvarishlovchilarga, mazkur mamlakat aholisining moddiy farovonligini yaxshilanishi va ayollarning jamiyat hayotidagi ishtirokining faollashuvi esa, uy xizmatchilariga bo'lgan talabning ortishiga olib keldi. Ayollar mehnat migratsiyasining rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillarning ko'rsatishicha, Rossiyadan Qirg'izistonga yo'naltirilgan mehnat migratsiyasining 40 % ini, Tojikiston va O'zbekistonda esa, 20% ga yaqini ayollar mehnat migratsiyasini tashkil etadi [1].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayollar mehnat migratsiyasining sabablari mamlakatlar kesimida farqlanadi. Masalan, tojikistonlik va qirg'izistonlik ayol mehnat migrantlari uchun daromad topish, oila qurish kabi shaxsiy hayotini yo'lga qo'yish kabi omillar, boshqirdistonlik ayol migrantlar uchun esa, farzandlariga ta'lim va tarbiya berish, uy-joy qurish, qarzlardan qutilish, yaqin kishilarini davolash uchun daromad toppish kabi holatlar ularning boshqa mamlakatga borib ishlashi uchun turtki bermoqda. Empirik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, respondentlarning 84 foizi ayollar mehnat migratsiyasi ularning hayoti va karerasi uchun ijobiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlasa, respondentlarning 62 foizi esa mazkur jarayon resipient mamlakat va hududlarga ijobiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganlar. 2024-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab migrantlar soni 321 million kishini, ularning 49 %ini ya'ni, 156 millionini ayol migrantlar tashkil qiladi [2, 12-14].

METODOLOGIYA

Dunyo bo'ylab aynan mehnat migrantlari esa, 180 million kishini tashkil qilgan bo'lib, ularning 42,5 foizini ya'ni, 81 millionini ayollar tashkil qiladi. Jami migrantlar tarkibida ayollarning ulushini mintaqalar kesimida tahlil qilar ekanmiz, mazkur mintaqalarda ko'rsatkichlarning o'rganini guvohi bo'lamiz. Xususan, 1990-2024-yillar orasida Shimoliy Amerika mintaqasida 52 foizdan 53,5 foizgacha, Afrika mintaqasida 47,6 foizdan 48,5 foizga, Janubiy Osiyo mintaqasida 48,4 foizdan 49,6 foizgacha, Lotin Amerikasi mintaqasida 48,8 foizdan 49,5 foizgacha, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida 44 foizdan 47 foizgacha o'sish, Sharqiy Osiyo va Tinch okean mintaqasida esa 48,6 foizdan 41.8 foizga qisqarishi kuzatilgan [3].

Ayol mehnat migrantlarini bevosita mintaqalar bo'yicha joylashuviga e'tibor berar ekanmiz, 31 foizi Shimoliy Amerika va 38 foizi Yevropa mintaqasida joylashgan. Mamlakatlarning rivojlanganlik darajasi ayol migrantlar ulushiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, ayol migrantlarning ulushi quyi daromadli mamlakatlarda 49 foizidan 49,6 foiziga ortgan bo'lsa, o'rta daromadli mamlakatlarda 48 foizidan 45,4 foiziga hamda o'rtadan yuqori daromadli mamlakatlarda esa 48,5 foizidan 43 foizigacha qisqargan. Ayol mehnat migrantlarining 69 foizi yuqori daromadli, 19,9 foizi ortachadan yuqori daromadli, 8,3 foizi o'rtachadan quyi daromadli hamda 2,8 foizi quyi daromadli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadilar. 1990-2023-yillar davomida jami migrantlar tarkibida ayollarning ulushi 75 ta mamlakatda 1 foiziga, 22 ta mamlakatda esa, kamida 5 foiziga o'sgan. O'z o'rnida ularning ulushi 67ta mamlakatda kamida 1 foiziga, 8ta mamlakatda esa kamida 10 foiziga qisqargan. Ayol migrantlarning 8,3 foizini 15-24 yoshdagilar, 86,3 foizini 25-54 yoshdagilar hamda 5,4 foizini 65 yoshdan kattalar tashkil qiladi [4, 6-7].

ASOSIY QISM

Ayol migrantlar jami ishchilarning 5 foizini tashkil qilib ularning 18 foizi yuqori daromadli, 2,3 foizi o'rtachadan yuqori daromadli, 1,5 foizi o'rtachadan past daromadli hamda 1,4 foizi quyi daromadli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatadilar. Ayol migrantlar asosan uy xizmatlari, qishloq xo'jaligi sohasi, mehmonxona biznesi, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi ijtimoiy sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, ular Yevropada asosan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda faoliyat ko'rsatadilar. Xususan, Ispaniya va Gretsiyada mehmonxona biznesida, Buyuk Britaniyada tibbiyot sohasida, Italiyada ta'lim sohasidagi ayol migrantlarning ulushi yuqori. Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra, Yevropadagi 25-54 yoshdagi oliy ma'lumotli migrant ayollarning 30 foizidan ortig'i yuqori malakaga ega bo'lib, ular fan, texnologiya, matematika va tibbiyot kabi STEMM sohalar bo'yicha mutaxassis hisoblanadilar. Bunday ayol migrantlar orasida bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan tajriba va ko'nikmalarning mavjudligi ularning zamonaviy va yirik kompaniyalardagi bo'sh ish o'rinlariga bo'lgan intilishlarini oshiradi.

Oliy ta'limga ega bo'lgan mehnat qilish yoshidagi ayol migrantlar mintaqalarda taqsimlanishiga e'tibor qaratsak, yuqori daromadli mamlakatlarda ularning ta'lim darajasi yuqoriroq ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ammo shu o'rinda, ayol mehnat migrantlari orasida xorij mamlakatlarida o'rta va yuqori malakani talab qiluvchi sohalarda faoliyat ko'rsatayotganlar bilan bir qatorda norasmiy ravishdagi uy xizmatchisi, enaga, qariyalar parvarishlovchi, past malaka talab qiluvchi ishlarda ish beruvchiga butunlay qaram bo'lib qolib ishlayotganlari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Dunyodagi 196 million mehnat migrantlarining 8-9 foizini migrant uy xizmatchilari tashkil etgan. Bu ko'rsatkichni ayol migrantlar orasida ko'rsak, dunyodagi jami 70 million ayol migrantlarning 12 foiziga yaqini 8,5 millionini ayol migrant uy xizmatchilariga to'g'ri keladi.

Dunyo bo'ylab 67 million uy xizmatchilarining 17 foizi ya'ni 11,5 millionini migrant uy xizmatchilari tashkil qiladi. Bu esa dunyo bo'ylab shaxsiy va uy xizmatlari uchun migrantlarga bo'lgan talabning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab uy xizmatchilarining 80 foizi yuqori daromadli mamlakatlarda joylashgan bo'lib, ular mazkur mamlakatlardagi jami migrantlarning 66 foizini tashkil qiladi. Arab davlatlari, Shimoliy Amerika va Yevropa mintaqalarida jami migrant uy xizmatchilarining 52 foizi joylashgan. Mazkur mintaqalarda demografik jihatdan qarish jarayonlarining yuqori sur'atlarda o'sishi parvarishga muhtoj kishilarning shaxsiy va uy xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Xususan, dunyo bo'ylab uy xizmatchilarining 81 foizini ayollar tashkil qilsa, migrant uy xizmatchilarining 73 foizini ayollar tashkil qiladi. Dunyo mintaqalari bo'ylab jami migrantlar tarkibida ayol migrant uy xizmatchilarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Arab mintaqasida 61 foiz hamda eng past ko'rsatkich Sharqiy Yevropa mintaqasida 1 foizni tashkil qiladi.

Arab mamlakatlari mintaqasida jami uy xizmatchilarining 82 foizini ayol migrantlar tashkil qiladi. Bu holat esa, uy xizmatchilari va ayollar migratsiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqliqni ifodalaydi. Natijada ishga yollanayotgan 10ta ayoldan 6 tasini uy xizmatchilari tashkil qiladi. Janubiy Osiyo mintaqasi va Sharqiy Osiyo mintaqasi eng ko'p uy xizmatchilarini yuboruvchi mintaqah hisoblanadi. Xususan, mintaqadan ayol migrant uy xizmatchisi sifatida Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalariga hamda yangi industrial mamlakatlarida faoliyat ko'rsatadilar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo

bo'ylab 12 millionga yaqin uy xizmatchisi bo'lib, ularning aksariyatini ayollar tashkil etadi. O'rta Sharq mintaqasi, Afrika va Osiyo mintaqasi kabi quyi daromadli mamlakatlardan kelgan ayol migrantlarni eng ko'p jalb qiluvchi mintaqa hisoblanadi. Mazkur ayol migrantlarning aksariyati past malaka va quyi ta'lim darajasiga ega bo'lishlari hamda ishlash uchun boradigan joylaridan bexabar ekanliklari ish beruvchilar uchun ularga kam ish haqi to'lash, belgilangan ish soatidan ortiqcha ishlatish, jismoniy kuch ishlatish va tahqirlash kabi ekspluatatsiyaning turli shakllaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Mahalliy ishchilar bilan solishtirganda ayol migrant uy xizmatchisi uchun yetarli xavfsiz ishlash sharoitlarining yaratilmasligi, ularga nisbatan jismoniy va jinsiy zo'ravonlik o'tkazilishi, ularning huquqlarini poymol qilinishi mazkur ayol migrantlarning jismoniy va ruhiy jihatdan jarohatlanishlariga yoki bir umr kasallanib qolishlariga olib kelmoqda. Xususan, Yaqin Sharqqa katta miqdordagi ayol uy xizmatchilarini yetkazib beruvchi mamlakatlardan biri bu Efiopiya hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, birgina Saudiya Arabistonida ishlab qaytgan efiopiyalik ayol migrantlarning aksariyati mazkur safarlarining xatarli bo'lganini, oziq-ovqat va ichimlik suvi tanqisligi va tahqirlanish muammolaridan aziyat chekkanliklarini bildirganlar. Livandagi jami migrantlarning 76 foizini va uy xizmatchisi bo'lgan migrantlarning 99 foizini ayol migrantlar tashkil etadi.

Xalqaro Migratsiya tashkiloti tomonidan 2024-yilda 387 nafar og'ir sharoitdagi mehnat qilayotgan ayollarga yordam berilgan. Ularning 89 nafari Liviyaga ketayotganliklarini ham bilmaganliklarini, ularni Turkiya, Fors ko'rfazi, Yevropa, AQSH yoki Kanadaga ishga joylashtirishga va'da berilganligini ma'lum qilganlar. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, majburiy mehnatdan aziyat chekayotganlarning 17 millionini ayollar tashkil etadi. Livandagi uy xizmatchilariga nisbatan nafaqat majburiy mehnat, balki, qullik, odam savdosi, shaxsiy hujjatlarni yashirib qo'yish, irqiy kamsitish va qiynoqlar kabi tazyiqlar o'tkazilishi ko'p uchraydi. Ayniqsa pandemiya sharoitida mamlakatdagi ayol migrant uy xizmatchilarining norasmiy migrant statusini tanlashga majbur bo'lishlari ularga nisbatan belgilangan minimal ish haqi miqdoridan kam bo'lgan ish haqi to'lash yoki umuman ish haqi to'lamaslik hamda ish soatidan ortiqcha ishlatish kabi holatlarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 1,3 ming ishchilar orasida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ayol xizmatchilarning 23 foizi ish beruvchilar kunduz kunlari ularni ustlaridan qulflab ketishlari ma'lum bo'lgan. Ba'zi manbalarda ta'kidlanishicha, Livanda migrant uy xizmatchilari tomonidan dunyoga keltirilgan 15 ming nafar ta'lim olish va boshqa davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan bolalar mavjud.

Ayol migrantlarning o'z vatanlariga pul o'tkazmalari katta hajmni tashkil qilmasada, ularni o'tkazmalarining asosiy qismi sog'liq, ta'lim, oila va jamiyat taraqqiyoti uchun sarflanadi. Masalan, nepallik asosan uy xizmatchisi bo'lgan ayol migrantlarning pul o'tkazmalari mamlakatga yuborilgan jami migrantlarning o'tkazmalarining 50 foizini yoki YAIMning 23 foizini tashkil qiladi [5, 45-46]. Shu o'rinda ayol mehnat migrantlarining tajriba, bilim, ijtimoiy, siyosiy va madaniy normalar kabi ijtimoiy o'tkazmalari pul o'tkazmalaridan ko'ra ko'proq ahamiyat kasb etishiga ham e'tibor berish lozim. Chunki, ayollarning xorijga ega bo'lgan bilimlari, g'oyalari, tajriba va texnologiyalar bo'yicha ko'nikmalari ularning oilalari va jamiyatdagi mavqelarining ortishiga va mazkur muhit ishtirokchilarining dunyoqarashlarida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishini ham unutmash kerak. Ayollar erkak migrantlarga nisbatan kamroq ish haqi olsalarda, ammo erkaklarga nisbatan daromadlarining katta qismini yuboradilar. Shuningdek, ularning transfer to'lovlari ham yuqoriroq. Migrantlar pul o'tkazmalarining 26 foizi ayollar ulushiga to'g'ri keladi [6].

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, aksariyat o'rtadan quyi bo'lgan hamda past daromadli mamlakatlarda ayol migrantlar mehnat bozoridagi diskriminatsiya, ishdagi ekspluatatsiya va zo'ravonlik, sog'liqni saqlash va ta'limdan foydalanishdagi to'siqlar, sudlovdagi adolatsizliklar kabi muammolarga duch kelishida davom etmoqdalar. Odam savdosi qurbonlari Ichida hali ham ayollarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, odam savdosi qurbonlarining 65 foizini ayollar ya'ni, 46 foizini kattalar va 19 foizini qizlar tashkil etadi [7]. Yuqoridagi holatlar ayollar mehnat migratsiyasi muammosini kun tartibining dolzarb masalasi sifatida qolishini va mazkur jarayon bilan

bog'liq muammolarni oldini olishda xalqaro va mintaqaviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bora namoyon etadi.

Mehnat migratsiyasi: a) ijtimoiy oqibatlarni tartibga solish, b) siyosiy oqibatlarni tartibga solish, c) ma'naviy oqibatlarni tartibga solish, d) transport xavfsizlik oqibatlarni tartibga solish. Bu jarayonlarda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

Huquqiy asoslar;

Tashkiliy va sotsiologik dastaklar;

Iqtisodiy va moliyaviy dastaklar.

Yuqorida olib borilgan tahlillar natijasida mehnat migratsiyasi natijasida kelib chiqadigan turli xildagi oqibatlar muhim ahamiyatli ekani ilmiy izohlandi. Ulardan biri iqtisodiy omillar bo'lib, ularning oqibatlarini tartibga solishda sotsiologik, ma'naviy, huquqiy asoslar, iqtisodiy-moliyaviy dastaklar qo'llaniladi.

Ushbu mexanizm nazariy-uslubiy ahamiyatga molik bo'lib, u konseptual model hisoblanadi va ushbu mexanizmning barchasi ijtimoiy xususiyatga ega. Unda quyidagi elementlar mavjud:

1. Mehnat migratsiyasini tartibga solish mexanizmning elementlaridan biri sotsiologik dastak hisoblanadi. Bu dastak nodavlat notijorat tashkilotlari va diasporalar orqali amalga oshirilib, bunda migrantlarning eng zarur muammolarining (hayoti va salomatligi, sha'ni, qadr-qimmatini, diskriminatsiya) oldi olinadi.

2. Ma'naviy tadbirlar (migrantlarning har bir vakiliga ish beruvchi mamlakat an'analari, urf-odatlar, tili, dini, turmush tarzini o'rganish).

3. Iqtisodiy-moliyaviy mexanizm elementlari: iqtisodiy usullar tashqi (mehnat muhojirlarining yuqori ish haqi olish bilan ta'minlanishi, qonuniy migratsiyani mustahkamlanishi), mamlakat ichkarisida (oylik maoshlarni ko'tarish, ish o'rinlarini ko'paytirish, tadbirkorlarga imtiyozlarni oshirish va kerakli sharoitlar bilan ta'minlash) kabi iqtisodiy usullarni qo'llagan holda aholini samarali mehnat faoliyatini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

4. Huquqiy mexanizm elementlari – O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarini, xalqaro tashkilotlar (Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti) bilan tuzilgan memorandum va shartnomalarni, xorijiy mamlakatlar bilan imzolangan bitimlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Xususan, 2024-yil 16-apreldagi P-3435 sonli "O'zbekiston Respublikasining mehnat munosabatlari va tashqi mehnat migratsiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 5-maydagi PQ-4609-sonli "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish", 2024-yil 30-sentyabrdagi PQ-6305-sonli "Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi kabi hujjatlar qabul qilindi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu qaror va farmonlar mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida xalq turmush tarzi va farovonligini oshirish, davlatimizning xalqaro reytingini ko'tarish, mehnat migratsiyasining noqonuniy hatti-harakatini oldini olish va muammolardan xalos etishga qaratilgan dadil qadam bo'ldi. Lekin, ushbu qarorlar sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamiga keng bo'lsada, ushbu sohaga oid ba'zi bir muammolar hali ham mavjudligiga e'tibor qaratilmagan.

Jahon tajribasini kuzatganimizda, Markaziy Osiyo mintaqasidagi Qozog'iston davlatida 2011-yil 22-iyulda "Aholi migratsiyasi to'g'risida", Qirg'izistonda 2022-yil 30-avgustda "Tashqi migratsiya to'g'risida"gi, Tojikistonda 2009-yil 12-noyabrda "Migratsiya to'g'risida"gi, Turkmanistonda 2012-yil 31-martda "Migratsiya to'g'risida"gi qonunlar qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjat mehnat migratsiyasining sohani tartibga soladigan yaxlit qonunlar bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda, ayollar mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini tartibga solish uchun quyidagi tashkiliy va sotsiologik usullarni taklif etamiz:

1-usul. Ushbu bosqichda migratsiya ta'siriga tushib qolgan ayollar markazlarini ochish. Ushbu markazlarni "Migratsiya va ayollar" deb nomlash taklif etildi. Ushbu markazning faoliyati qiyin sharoitda qolib ketgan migrant ayollarga iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy yordam berish bo'lishi kerak. Migratsiya ayollarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Ular o'z vatanlarini vaqtinchalik

tark etishadi va bu jarayon albatta bolalarini, yaqinlarini, vatanini sogʻinish tuygʻularini qamrab oladi. Ayniqsa, ajrashib farzandini yolgʻiz katta qilayotgan ayolning ruhiy kechinmalari, iqtisodiy jihatdan qiynalib qolganligi migratsiya sohasiga kirib kelishiga majbur qiladi.

Ayol migrant boʻlgan respondentlarga “Ayingchi, sizdan uzoqda yashagan paytda bolalaringizga atrofdagilarning munosabati qanday boʻlgan?” degan savolga ularning javoblari quyidagicha boʻldi: oʻz ota-onamizni qoʻlida qoldirganimiz uchun ularga yaxshi munosabatda boʻlishgan – 42 foiz, ammasi yoki xolasi farzandlarimizga oʻzlarining farzandlari singari munosabatda boʻlishgan – 34 foiz, deb javob berishgan boʻlsa, 14 foiz respondent ayol ularning farzandlari birovning qoʻlida qolib ketganligi uchun afsusda ekanliklarini aytib oʻtishgan boʻlsa, 6 foiz respondent turmush oʻrtogʻi qoʻlida ekanligi va qolgan 4 foiz respondent esa mazkur savolga javob qaytarishdan bosh tortishgan.

Innocenti social Monitor nashrining 2024-yilgi sonida yozilishicha [8], migrant ayollar tomonidan uyga yuborilgan pul oʻtkazmalari isteʼmolni koʻpaytirish, oʻqishni moliyalashtirish, tibbiy xizmatlar uchun, salomatlikni tiklash, uy-joylarni yaxshilash maqsadida ishlatilgan. Bolalarning foyda olishlari ularning ushbu qoʻshimcha manbalardan foydalanishiga bogʻliq boʻlishi mumkin. Oʻrnini bosuvchi yordam bilan shugʻullanish yoki parvarishning yetishmasligi baʼzi bolalarning hissiy farovonligi va psixologik rivojlanishi uchun qiyinchiliklar tugʻdiradi. Kattalar va bolalar yuqori migratsiya jamoalarida mehnatga layoqatli jamoa aʼzolaridan mahrum boʻlishadi [9].

Ota-onasi bilan koʻchib ketayotgan bolalar turli xil imkoniyat va muammolarga duch kelishadi. Aholining yashash joyidagi marginallashuvi va kamsitilishi, ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi toʻsiqlar, fuqarolik va shaxs huquqlariga oid muammolar, ota-onalarning iqtisodiy xavfsizligi, ijtimoiy va madaniy dislokatsiya baʼzi bolalarga salbiy taʼsir etishi mumkin. Aksariyat muhojir bolalar rivojlanib, oʻzlarining yangi jamoalariga ijobiy hissa qoʻshadilar. Zaif bolalarni qoʻllab-quvvatlash va himoya qilish uchun siyosat va dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

“Migratsiya va ayollar” markazi mahalla, oila, maktab, tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borib, asosiy maqsadi qiyin sharoitga tushib qolgan migrant ayollar va bolalarning turli ijtimoiy guruhlariga qoʻshilib ketishining oldini olish boʻlib, markazda har bir bola bilan individual ishlaydigan psixolog, har xil toʻgaraklar faoliyat olib boradi [10].

2-usul tashqi mehnat migratsiyasi natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-ijtimoiy chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Bunday chora-tadbirlar Oʻzbekistonning xorijdagi mehnat migrantlari va oilalarini jalb qilgan holda amalga oshiriladi. Bunday chora-tadbirlar sotsial integratsiyaning tezlashishiga koʻmaklashadi.

Ijtimoiy integratsiya – bu yangi kelganlar va ozchilikning mezbon jamiyatning ijtimoiy tarkibiga qoʻshilish jarayonidir. Ijtimoiy integratsiyaning yuqori darajalari guruhlar orasidagi yaqin ijtimoiy masofani va izchil qadriyatlar, amaliyotlarni oʻz ichiga oladi. Tili, irqi, dini va boshqalardan qatʼiy nazar turli xil etnik guruhlarining birlashishi, oʻzligini yoʻqotmasdan, bu jamoat hayotining barcha sohalariga kirish imkoniyatini beradi. Kengroq maʼnoda, ijtimoiy inklyuziya – bu barcha aʼzolarining tinch ijtimoiy munosabatlarga erishishini taʼminlaydi.

Avvalo, migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilishda Polsha modeli singari migratsiya siyosati jamoat javobgarligi funksiyasini nodavlat maqomi va holatiga ega boʻlgan ijtimoiy agentliklarga topshirishi maqsadga muvofiq boʻlar edi. Faqat Oʻzbekistonda bu boshqacha koʻrinishga ega boʻlib, mamlakatning xorijiy konsulliklari huzurida tashkil etiladigan nodavlat agentliklarga topshirishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday agentliklar jamoa birlashmalari shaklida faoliyat olib borib, xorijiy mamlakatda yashayotgan va xorijiy mamlakat fuqaroligini olgan, oʻtmishda migrant maqomiga ega boʻlgan, ammo, oʻzbeklar bilan aloqasining uzilishini xoxlamaydigan va milliy urf-odatlar, qadriyatlarni saqlab qolish istagida boʻlganlar yordamida tashkil etiladi.

Migratsiya agentliklari xorijga mehnat migrant sifatida ketgan, ammo xorijda ishidan ayrilgan, jamiyatga moslashishi qiyin boʻlayotgan migrant ayollarni ish bilan taʼminlashga, oʻzbeklar birlashmalariga qoʻshilishiga, migrant oilalar farzandlarining bir-birini tanishiga yordam beradi. Shuningdek, ushbu agentliklar tomonidan turli tadbirlar, koʻngilochar marosimlar ham oʻtkaziladi.

3-usul. Avstraliyada olib borilgan ayollar mehnat migratsiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, tashabbus va ta'limga ega bo'lgan ayol migrantlar uchun mamlakat hukumati ko'chib o'tish va doimiy yashash sharoitlarini soddalashtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratdi. Xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlari ishtirokchilarining ko'pligi davlatlarning iqtisodiy o'sishi va xalqaro integratsiyalashuviga olib keldi.

O'zbekistondagi vaziyat Avstraliyadagi vaziyatning aksi ekanini va tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirayotgan fuqarolarning aksariyat qismi oliy ma'lumotlilar va olimlar, muhandislar, vrachlar, dasturchi ekanini hisobga olgan holda, mamlakat ushbu mutaxassislarni o'z vatanida saqlab qolish chora-tadbirlarini amalga oshirishi kerak.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida yuqori malakali mutaxassislar har qanday mamlakatning boyligi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarning aksariyati rivojlanayotgan mamlakatlardan bo'lgan oliy ma'lumotli migrantlarni ularning ta'limi va 18 yoshgacha bo'lgan tibbiy himoyasiga mablag' yo'naltirmay turib, tayyor mutaxassislarga ega bo'ladilar. O'zbekiston singari umumiy ta'lim 18 yoshgacha, davlat tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar bepul bo'lgan mamlakatlar oliy ma'lumotli mutaxassislarga byudjet hisobidan katta mablag' ajratadi, ammo ular yetuk mutaxassis bo'lganidan so'ng O'zbekistondan ketadi. Bunga asosiy sabab ularning ish haqidan qoniqmasliklaridadir.

Mamlakatda bunday mutaxassislarni saqlab qolishning eng muhim usuli ularning maoshlarini oshirish va xorijga ketmay turib, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlashiga imkoniyat yaratishdir. Mutaxassislarning xorijiy tashkilotlar bilan onlayn ishlashi uchun sharoit va imkoniyat yaratish bilan birga, ushbu masalada ham davlatning xorijiy mamlakatlar bilan bitim va kelishuvlarga erishishi ham talab etiladi. Hozirda ham bunday loyihalar mavjud, ammo ular davlatlar o'rtasidagi kelishuv natijasida amalga oshmayapti.

Mamlakat ayollar migratsiyasini tartibga solishdagi muammolardan yana biri bu – huquqiy asoslarning yetarli emasligidir. Davlat va hukumat tomonidan qabul qilingan ayollar mehnat migratsiyasi bo'yicha qonunosti hujjatlari, qarorlar bo'lsada, aynan ayollar migratsiyasi haqidagi Qonunning mavjud emasligi, odatiy holatlardan biridir. Ushbu qonunning qabul qilinishi migrant ayollar huquqlarining buzilishini, kamsitishlarni, zo'ravonlik va ekspluatatsiya qilinishlarining oldini oladi. Jumladan:

- ayollar mehnat migrantlari va ularning rasmiy migratsiyani amalga oshirish jarayonidagi ijobiy jihatlarini qonun bilan belgilash;
- migratsiya natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy oqibatlarining oldini olish maqsadida mas'ul tashkilotlarni belgilash va boshqalar.
- Tadqiqot davomidagi xulosalarga tayangan holda O'zbekiston Respublikasining "Ayollar migratsiyasi" to'g'risidagi Qonunida quyidagi bandlarning aks ettirilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi:
- chet el fuqarolari bo'lgan migrant ayollar va fuqaroligi bo'lmagan ayollar O'zbekistonda ishlash uchun maxsus ruxsatnomaga ega bo'lishlari;
- ariza beruvchi immigratsiya ruxsatnomasini shaxsan tegishli davlat organiga yuboradi. Agar asosli sabablar mavjud bo'lsa, ya'ni ariza beruvchining kasalligi, tabiiy ofat va boshqalar ariza pochta orqali yoki ariza beruvchining nomidan notarius tomonidan tasdiqlangan, boshqa shaxs tomonidan yuborilishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar uchun, shuningdek, belgilangan tartibda qonuniy muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar uchun ularning qonuniy vakillari tomonidan immigratsiya haqidagi ruxsatnomani olish to'g'risida ariza beradi.

Agar voyaga yetmagan bolalari bilan birga bo'lgan ota-onalardan biri immigratsiya qilsa, u erining (xotinining) notarius tomonidan tasdiqlangan u ota (ona)si bilan birga bolalarning ko'chib kelishiga qarshi emasligi haqidagi bayonot taqdim etishi shart. Bunday rozilik bo'lmasa, ota (ona), bolalarni onasiga (otasiga) qoldirish to'g'risidagi tegishli davlat organiga o'z qarorini taqdim etishi shart.

Tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirayotgan 16 yoshga to'lmagan farzandi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ruxsatnomani ro'yxatdan o'tkazish davrida farzandini olib

ketayotganligi, yoki, yaqin qarindoshlaridan kimning qaramog'ida qoldirayotganligi to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etishi kerak.

Turli xil ijtimoiy guruhlardagi migratsiya jarayonlari noaniq. Ular chuqurligi, intensivligi, namoyon bo'lish yo'nalishi bo'yicha farqlanadi. Ular guruh ichidagi o'zaro ta'sirning turli xil usullari va vositalari bilan ajralib turadi. Ular vaqt va makonda sezilarli darajada o'zgarib turadi, bu migratsiyani ijtimoiy mobillikning bir turi migratsiya harakatchanligi sifatida ko'rib chiqish huquqini beradi.

XULOSA

Xulosa o'rni shuni keltirish mumkinki, ayollar mehnat migratsiyasining asosiy oqimlari va zamonaviy yo'nalishlari quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

Birinchidan, bugungi kunda ishchi kuchi migratsiyasining globalizatsiya jarayonida dunyo manzarasi, xalqaro mehnat munosabatlari hamda inson resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish darajasining yaratilishiga asos boladi.

Ikkinchidan, jahon hamjamiyatining rivojlanish bosqichlarida migrant ayollarga bo'lgan talabning ortishi yangidan-yangi ish o'rinlarining yaratilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, jamiyat sotsial-iqtisodiy rivojlanishida jalb etilayotgan investitsiyalar asosida yangidan-yangi ishlab chiqarish sohalari joriy etish bilan aholi soni ko'payishi o'rtasida nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkin.

To'rtinchidan, migrant ayollarga bo'lgan talabning o'sib borishi tendensiyasidan ularning soni kelajakda yanada ortishini prognoz qilish mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Department of Economic and Social Affairs, Population // Dynamics. 2019. <https://population.un.org/wpp/Download/Standart/Population/>
2. Migrant Workers Labour Migration Branch Conditions of Work and Equality Department of Statics Results and Methodology 2024. – P 12,14.
3. https://publication.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf
4. Galate M. Migrant Domestic Workers across the World: Global and Regional Estimates, International Labour Organization. Geneva, Switzerland, 2023. – pp 6-7.
5. Daniela Balzani, Fransesca Grivallara, Roza Grimaldi Highly skilled yet invisible. The potential of migrant women with a STEMM background in Italy between intersectional barriers and resources. 2024. – P.45-46.
6. Migrant mehnatkashklar to'g'risida qo'shimcha qoidalar. <https://nrm.uz>. Contendok 143-konvensiya.
7. Kadath P. In the Shadow of the State: The Recruitment and Migration of South Indian Women as Domestic Workers to the Middle East, International Labour Organization: Geneva Switzerland, 2024.
8. Migration and gender // Asia Research institute. Migration Cluster. Rejim dostupa: <https://www.ari.nus.edu.sg/article/view.asp.=188>
9. <https://kun.uz/ru/news/2023/02/20/v-2022-godu-pritok-trudovyx-migrantov-iz-uzbekistan-v-rf-vyros-na-351>
10. Rabiye B.B. O'zbekistonlik ayollar migratsiyasi (Rossiya Federatsiyasi misolida). Economy and Innovation ISSN: 2545-1573 Volume: 34 2024.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000